

MUMTOZ MANBALARDA SHARH TUSHUNCHASINING TALQINI

To‘raqulova Mahliyo G‘ayrat qizi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Sharhlab o‘qitish asrlar osha ilm o‘rganishda keng qo‘llanib keltingan. Mumtoz asarlarni sharhlab o‘qitish bugungi kunda dolzarb masala sanaladi. Mumtoz matn ustida ishslash, notanish so‘zlar lug‘atini tuzish, o‘quvchilarga mumtoz asarlardagi mazmun-mohiyatni yetkazish sharhlab o‘qitish asosida amalga oshiriladi. Ushbu maqolada sharhlab o‘qitishning ahamiyati, o‘ziga xos xususiyatlari va amaliy jihatlari haqida mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Sharh, nasr, mumtoz adabiyot, lug‘at, she’riyat.

Annotations: Commentary teaching has been widely used in science for centuries. Interpreting and teaching classical works is a topical issue today. Work on the classic text, compiling a dictionary of unfamiliar words, conveying to students the content of the classic works is carried out on the basis of commentary teaching. This article discusses the importance, specifics, and practical aspects of commentary teaching.

Keywords: Commentary, classical literature, dictionary, poetry, prose.

Mumtoz adabiyot asrlar davomida insoniyatga ma’naviy ozuqa vazifasini o‘tab kelgan. O‘zbek olimlari P. Shamsiyev, B. Valixo‘jayev, B. Akramov, N. Mallayevlar mumtoz adabiyot, mumtoz manba bag‘ridagi durdonalarni topish, kelajak avlodga yetkazish yo‘lida beminnat hissa qo‘sghan.

Bugungi kunda mumtoz asarlarni o‘rganish, mumtoz siymolarning badiiy tafakkurida yuksak insoniy g‘oyalar bilan shakllantirilgan qahramonlar ruhiy olamiga kirish, adabiy tur va janrlarga xos xususiyatlarni aniqlash, maktab adabiyot fani o‘qituvchilari oldiga yuksak mas’uliyatni qo‘ymoqda. Zero, kompyuter texnologiyalari rivojlangan bir paytda zamonaviy o‘quvchi bor e’tiborini tezkor va qiziqarli, bahsmunozarali mavzularga qaratib, qo‘lidagi telefon, kompyuter singari qurilmalardan foydalanib kelmoqda. Internet tarmog‘idan ijobiy va salbiy foydalanish masalasi o‘quvchi dunyoqarashini mas’uliyatli bo‘lishga unday olmaydi. Shu ma’noda o‘quvchilarni o‘tmish adiblar ijodiga qiziqtirish, adabiyot darslarida mumtoz tafakkurni shakllantirish masalasi o‘qituvchining kun tartibiga aylanishi shart. Ma’lumki, sharhlab o‘qitish uzoq asrlardan beri ilm o‘rganishda keng qo‘llanib keltingan usullardan biri hisoblanadi. “Sharh” arabcha so‘z bo‘lib ochish, bayon etish, oshkor qilish kabi ma’nolarni anglatadi. Navoiy asarlari lug‘atida esa sharh aylamak, izohlamoq tarzida bayon etilgan. Ba’zi manbalarda sharh tavsifga o‘xshab ketishi, bu atama garchi sharh bilan ma’nodosh bo‘lsa-da, lekin u kengroq mazmunni anglatishi

qayd etiladi.¹

Ovro‘pa ilmiy atamashunosligida sharh tushunchasi hamma vaqt ham bir xil ma’noni ifoda etmagan. Masalan, sharh so‘ziga rus adabiyotshunosligida komentariy atamasi to‘g‘ri kelib, u bayon etish, tushuntirib berish, mag‘zini chaqish kabi ma’nolardan tashqari, keng ma’noda, ya’ni ilmiy taddiqot xarakteridagi ishlarga nisbatan ham qo‘llaniladi.²

Professor B. To‘xliyevning fikricha, sharhlab o‘qish orqali, biror asar matnini izohlash jarayonida o‘quvchilar notanish so‘z ma’nosini bilan, ayrim so‘zlarning ko‘chma ma’nosini yoki bir so‘zning bir necha xil ma’nolari bilan tanishadilar.³ Tarixiy badiiy asarlarni o‘qish orqali arxaik, shevaga xos, arab fors tilidan kirgan so‘zlar ma’nosini oydinlashadi, o‘quvchilar ko‘z o‘ngida o‘tmish madaniyat gavdalanadi. 10-11-sinf adabiyot darslarida berilgan mumtoz asarlarni o’rganishda, ba’zan darsda mavzuni badiiy asar nomini sharhlashdan boshlashga to‘g‘ri keladi. Masalan, 10-sinf adabiyot darsligida “Boburnoma” asaridan parcha berilgan. “Boburnoma”ning tarixiy-memuar asar ekanligi, qomusiy manba sifatida qiymati sanalishini tushuntirish, sharhlashda Boburning tarixiy shaxs ekanligini, u o‘z zamonasining taniqli hukmdori bo‘lganligidan boshlash zarur. Agar Boburning xarakteri uning shaxsini ochib beradigan tarixiy ma’lumotlar bilan izohlansa, darsning mazmundorligi ortadi. Gulxaniyning “Zarbulmasal”, Maxmurning “Hapalak”, Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asarlarini sharhlashda ham xuddi shu yo‘lni tutish mumkin.

Alisher Navoiy o‘zining “Majolis-un-nafois” asarida Sabzavor shahrida bo‘lgani, u yerdagi olim va shoirlar haqida hikoya qilar ekan, bir o‘rinda sabzavorlik olim Mansur Darvish haqida qisqacha to‘xtalib o‘tadi. Keyinchalik Mansur Darvish vositasida adabiyotshunos olim, aruzshunos Ya’hyo Sebakdan aruz ilmini o‘rganganligini shunday xotirlaydi: “Bu faqir aruz fanida vosita bilan Mavlononing shogirdiman”.⁴ Alisher Navoiyning bu xotirasidan ko‘rinadiki, o‘tmish talabalari ilm olishida faqat o‘quv dargohiga tayanib qolmay, balki taniqli olimlardan fanning ma’lum sohalaridan alohida ustozlardan ta’lim olishga intilganlar. Yoki Samarqandning Rabati G‘oziyon mavzesidagi madrasada kalom ilmining allomasi Muhammad ibn Fazl Balxiy mudarrislik qilgani adabiyotshunoslikka ma’lum. Tarixdan ma’lumki, Shayx Abu Mansur Motrudiy Abulqosim Hakim

¹ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1984. 230-б.

² Qodirov V. Umum ta’lim maktablarida mumtoz adabiyot namunalarini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari. – Namangan, 2019. 20-b.

³ Тўхлиев Б. Мумтоз асарларни шархлаб ўрганиш. – Тошкент: Баёз, 2013. 23-б.

⁴ Qodirov V. Umum ta’lim maktablarida mumtoz adabiyot namunalarini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari. – Namangan, 2019. 53-b.

Samarqandiyarlarning ustozlari bo‘lgan. Bu allomalar Raboti G‘oziyondagi madrasa talabasi bo‘lgan davrda Muhammad Fazl Balxiydan Kalom ilmining asoslaridan ta’lim olganlar. Xususiy mudarrislardan adabiyot ilmini o‘rgangan ko‘plab shoiru-allomalarning xotiralarini misol qilib keltirish mumkin. Aytish kerakki, madrasalarda faoliyat olib borganda adabiyotshunos-mudarrislarning o‘qiydigan darslari, ular yaratgan nazariy qo‘llanmalar katta shuhrat qozongan. Natijada, turli mintaqalardan tolibi ilmlar mazkur olimlar atrofida to‘plana boshlagan.

“Agar bu davrdagi madrasalarda ta’lim olgan Samarqandlik Nizomiy Aruziyning adabiy-ilmiy faoliyati mahsuli bo‘lgan “Nodir hikoyalar” yoki “Chohor maqola”, Buxorolik Muhammad Avfiyning Samarqandda yashab, bu yerdagi olimu mudarrislар, shoiru adiblar bilan suhbatda bo‘lib, so‘ngra Hindistonga safar qilib, Dehlida “Lubob ul-albob” nomli tazkirasini yozganini e’tiborga olsak, unda mazkur davrdagi madrasalar, mudarrislар va ulamolar muhitida she’ru-shoirlik, adabiyotshunoslik masalalariga ham katta e’tibor berilganligidan xabardor bo‘lamiz”.⁵

O‘tmishda sharhshash “Ilmi sharh” nomi bilan atalgan. Filologiya fanlari nomzodi Mahkamoy Tursunova “Madrasalar ta’limida adabiyot o‘qitish metodikasi” nomli monografiyasida ilmi sharh usulining ilk namunalarini islom dinining muqaddas kitobi “Qur’oni karim” oyatlarini, suralarini o‘rganish yo‘llarida ko‘ramiz deydi. Bilamizki, Qur’on arab tilida bitilgan bo‘lib, arab bo‘lmagan (ajam) xalqlarining islom dinini qabul qilishi natijasida islomiy aqidalarni, qarashlarni singdirilishida muqaddas kitob va hadisi shariflarning uyg‘un holda o‘rganilishi katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Islom dinini qabul qilgan xalqlarning muqaddas yozma yodgorligini o‘qish va o‘rganish oson hodisa emasligini olimlar o‘z tadqiqotlarida bayon etgan. Dastlab bu vazifani mufassirlar amalga oshirganlar. Din ilmidan yaxshi xabardor ulamolar, mufassirlar juda kamchilikni tashkil etgan bo‘lib, ular asosan payg‘ambarlar yoki payg‘ambarlar avlodlaridan bo‘lgan. O‘tmishda ilmi sharh, ilmi badia, ilmi fasohat, ilmi g‘aribadan xabardor kishilarni tafsirchi, mufassirlar, ta’vilchilar, shoriylar deb atalganlar. Keyinchalik bu vazifa maktab va madrasa mudarrislarning zimmasiga yuklatilgan. Dastlabki savod maktablari machitlarda, xususiy xonadonlarda, qorixonalarda bo‘lgan. Madrasalar ta’limida adabiyot o‘qitish usullarini o‘rgangan olima M.Tursunovaning yozishishicha, Bolalar arab alifbosini o‘zlashtirganlaridan so‘ng, birinchi diniy qo‘llanma “Haftiyak” ni o‘qigan va yod olganlar. “Haftiyak” fors-tojik tilidan olingan so‘z bo‘lib, “yettidan biri” degan ma’noni anglatadi. Unda Qur’ondan olingan ayrim kichik sur’alar jamlanib, 13-14 surani o‘z ichiga oladi. Bu qo‘llanma bir-ikki yil o‘qitilgan. “Haftiyak” dan so‘ng “Qur’on” o‘qitilgan, madrasa va madrasayi oliyalarning o‘quv dasturiga asosiy fan sifatida kiritilgan. Bu ilmlarni o‘rganish uchun esa ilmi sharh va tafsir qilish, qiroat bilan o‘qish, ilmi insho kabi o‘qitish usullari ham

⁵ Турсунова М. Мадрасалар таълимида адабиёт ўқитиш усуллари. –Тошкент: Мумтоз сўз, 2017. 21-6.

uyg‘unlikda qo‘sib olib borilgan. Shuningdek, o‘qitiladigan islomshunoslikka oid asarlar, xususan, “Qur’on” sharhi muqaddas kitobning o‘zidan kelib chiqilgan va talabalar ham shu aqidaga amal qilganlar.

Qur’onni sharhlashga mo‘ljallangan usul keyinchalik Sharq adabiyotida kashfiyot yaratgan allomalardan Yassaviy, Hofiz Sherazi, Sa’diy Sherazi, Firdavsiy, Fuzuliy, Alisher Navoiy, Mirzo Bedil, Mashrab va boshqa shoirlarning mumtoz merosini o‘rganishda ham keng qo‘llanilgan. Ma’lumki, bu shoirlar ijodi qadimgi turk va fors-tojik she’riyatida erishilgan ijodiy yutuqlar zaminida rivojlangan. Ular yaratgan har bir bayt o‘rnida qo‘llanilgan, har bir ibora – so‘z ustida jiddiy ishlaganlar, ularga sayqal berish, uni o‘rnida qo‘llash zamirida badiiy san’at namunasi yaratilgan. Eng muhim, ular ijodida fikriy izchillik mavjud.

B.Valixo‘jayev “Mumtoz siymolar” kitobida Sa’diy Sherazi, Hofiz Sherazi, Abdulqodir Bedillarning go‘zal forsiy she’riyati Eron sarhadlaridan oshib Xuroson, Movarounnahrdan to Hindu Rumgacha yetib bordi. Ular Sharq she’riyati shuhratini olamga tanitgan bo‘lsa, she’riyat ular nomini va shuhratini olamga yoydi. Ular shoir bo‘lish bilan birga so‘z san’atkorlari hamdir. Iste’dod sohiblari mumtoz she’riyatni misli ko‘rilmagan go‘zallik, nafosat darajasiga olib chiqdilar. Mumtoz she’riyatning barcha imkoniyatlaridan, usullaridan mahorat bilan foydalandilar. Ular so‘zga jon bag‘ishladilar. Chunki shoir qo‘llagan jonli so‘z o‘quvchini ko‘z bilan ko‘rib, tushungan narsalarni his qilishga undaydi. So‘z ta’sirida his-tuyg‘u, zavq-shavq paydo qilish orqali ularga lazzat baxshida etadi. Ular yaratgan she’riyatning umri boqiy bo‘lib, chinakam mo‘jizadir. Ayniqsa, haqiqiy joziba va sehr bilan paydo bo‘lgan she’riyat qalblarni qalblarga, tillarni tillarga bog‘laydi, zukko muxlisini o‘z izidan ergashtiradi. Eng muhim, shoir o‘z kayfiyatidagi hazinlikni, o‘ychanlikni muxlisiga ham singdira boradi. Alisher Navoiy she’riyat olamini ajoyib bir bo‘stonga qiyos qiladi. Bo‘stonda ochilgan turfa xil gullarning go‘zalligini, iforini ko‘rish va sezish uchun esa, gulzorga kirmoq va gullardan termoq lozim. Chunki, “Bu bo‘ston sahnida gul ko‘p, chaman ko‘p”.⁶ Shoir aytgan gul va chaman bu go‘zal she’riyatdir. Buning uchun so‘z sehrini anglamoq, uni tushunmoq, ilmi sharh yo‘li bilan mag‘zini chaqmoq muhim vositalardan biridir. So‘z san’atining, ayniqsa, badiiy so‘zning qudrati beqiyosdir. Inson nutqiga fayz berib turuvchi so‘z badiiy adabiyotda yanada ta’sirchan tusda namoyon bo‘ladi. Uning go‘zalligi yanada ta’sirchanlik kuchini oshiradi. Ana shu so‘z boyligini tushunib anglash, uning go‘zalligini his qilish har bir she’riyat muxlisining e’tiborini tortadi.

⁶ Qodirov V. Umum ta’lim mакtablarida mumtoz adabiyot namunalarini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari.

– Namangan, 2019. 47-b.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Тўхлиев Б. Мумтоз асарларни шарҳлаб ўрганиш. – Тошкент: Баёз, 2013. – Б. 69.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 507.
3. Qodirov V. Umum ta’lim maktablarida mumtoz adabiyot namunalarini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari. – Namangan, 2019. – В. 261.
4. Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. – Тошкент: Навоий, 1982. – Б. 248.
5. Турсунова М. Мадрасалар таълимида адабиёт ўқитиш усуллари. –Тошкент: Мумтоз сўз, 2017. – Б. 89